

# HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI VA JINOYATCHILIKGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI

*Abdurazaqov Shodiyor Sobirjon o‘g‘li*

*Samarqand davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi*



## SOCIO-PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF CRIME PREVENTION AND FIGHT AGAINST CRIME

*Abdurazakov Shadiyar Sobirjon ogl*

*Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign  
Languages*

### СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ

### ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ И БОРЬБЫ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ

*Абдуразаков Шодиёр Собиржон угли*

*научный сотрудник Самаркандского государственного  
института иностранных языков*

[https://orcid.org/0222-  
0252-0342-0345](https://orcid.org/0222-0252-0342-0345)

[abdurazaqovshodiyor@  
mail.ru](mailto:abdurazaqovshodiyor@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikga qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari, huquqbazarliklarning oldini olish, shuningdek, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining ahamiyati to ‘g‘risida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jinoyatchilik, jinoyatchilikning oldini olish, javobgarlik turlari, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy reabilitatsiya, jinoyatchilikka qarshi kurash.

**Abstract:** This article provides information and recommendations on the socio-philosophical mechanisms of crime prevention and crime prevention, the role of crime prevention and its prevention, as well as the importance of public control in this area.

**Key words:** crime, crime prevention, types of responsibility, public control, social rehabilitation, fight against crime.

**Аннотация:** В данной статье представлены информация и рекомендации о социально-философских механизмах предупреждения преступности и профилактики преступности, о роли профилактики преступности и ее предупреждения, а также о значении общественного контроля в этой сфере.

**Ключевые слова:** преступность, профилактика преступности, виды ответственности, общественный контроль, социальная реабилитация, борьба с преступностью.

**Kirish.** Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbazarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbazarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so‘roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Shu sabab huquqbazarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma’qul. Bunday holatda huquqbazarliklar

profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zining har bir chiqishlarida sohaga mas’ul bo‘lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergen holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg‘u qaratishni ko‘p bora ta’kidlab kelmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Barchamizga ma’lumki, huquqbazarlik ijtimoiy ma’noda jamiyat, fuqarolar va jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlariga xavf tug‘dirishga qodir xulq bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlaming rivojlanishini qiyinlashtiradi va ulaming buzilishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida

jamiyatda turii darajadagi ko'ngilsizliklar yuz bera boshlaydi va jamiyat o'z-o'zidan tanazzulga yuz tutadi. Shu o'rinda huquqbazarlik prafilaktikasi tushunchasiga yuridik ma'noda ta'rif berib o'tsak, "huquqbazañik" deganda, jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)[1], boshqa manbada esa huquqbazarlikka jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish, - deb ta'rif berilgan. Umuman olganda, huquqbuzariik ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanib, uni sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquq sohasiga asosan: a) fuqoraviy; b) intizomiy; v) ma'muriy; g) jinoiy turlarga ajratiladi. Prafilaktika so'zi esa ensiklopedik va izohli lug'atlarda yunoncha "praphilaktika" - saqlovchi, oldini oluvchi" [2], - degan ma'noni anglatishi ko'satilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, respublikamizda huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquqtartibotni ta'minlashda sezilarli darajada ijobji natijalami yaxshilashga erishildi. Darhaqiqat, bizningcha fikrimizcha ham, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish, nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki jamoat tashkilotlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi va u o'z ichiga huquqiy, ijtimoiy, tarbiyaviy jarayonlarni oladi. Shuning uchun ham, huquqbazarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ul degan qarash hozirgi kunda o'zini oqlamaydi desak adashmagan bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 27-tonli farmonida ham jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligini yo'nga qo'yish nazarda tutilgan [3]. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq jamoatchilik nazorati huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlariga nisbatan shuningdek huquqbazarliklar profilaktikasi obyektlariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Bu fuqarolar va

jamoat uyushmalarining faol ishtiroki orqali bevosita bezorilikning oldi olinishida namoyon bo'ladi [4]. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 15-ton qarori [5] bilan tasdiqlangan «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi nizom qoidalariga binoan rag'batlantiriladi. Mazkur vaziyatda profilaktikaning usul va shakllari o'zaro aloqador ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni profilaktikaning shakli doirasida amalga oshirilgan chora-tadbir uchun rag'batlantirish usuli qo'llanilmoqda[6].

**Natija va tahlillar.** Hozirgi kunda bir qator huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan ammo profilaktika amaliyotida huquqiy tavsifning mayjud emasligi, huquqiy normalardan foydalanishda prokuratura, adliya, ichki ishlar va sud organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatida yagona yondashuv yo'qligidan dalolat beradi [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev Oliy Majlis Senatida so'zlagan ma'rzasida Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish haqida to'xtalib, so'nggi yillarda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida bir qator ishlarni amalga oshirilganligini, ammo sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar mayjud ekanligini ta'kidlab o'tgan [6].

Darhaqiqat, sodir etilayotgan huquqbazarliklarning aksariyat qismi tayin bir ish joyiga ega bo'limgan, oilasida yetishmovchilik bor bo'lgan, muntazam ichkilikka, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga berilgan yoki muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday shaxslar tomonidan huquqbazarlik sodir etilishini oldini olishda ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish ya'ni g'ayri-ijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdag'i yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rgan holda ularning bandligini ta'minlash, qolaversa tadbirkorlikni rivojlantirish

muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda gap ketganda, hozirgi kunlarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga va ular oldida turgan muammolarni bartaraf qilishga, ularga keng imtiyoz va imkoniyatlar berilib, shu orqali aholini ish bilan band qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi dunyo amaliyoti shundan dalolat berib turibdiki, hech qaysi mamlakat faqatgina jinoyatchilarni jazolab, jinoyatchilikka barham berish borasidagi ko'zlangan natijalarga erisha olmagan. Shuningdek, bu borada bir qator huquqshunos olimlarimiz, xususan, X.Odilqoriyev va I.Tultyevlar ham quyidagi fikrlarini bildirib o'tganlar: Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshirishda jinoyatchilikni tag-tomiri bilan butunlay tugatish maqsadi haqqoniy emas, jinoyatchilikning holati va unga qarshi kurash shart-sharoitlaridan ko'rinish turibdiki, u ba'zan samarali, ba'zan esa besamara o'tkazilishi mumkin". Chamasi jinoyatchilikni butunlay yo'q qilish nihoyatda murakkab va to'la amalga oshmaydigan orzu bo'lsa kerak [8]. Bundan ko'rinish turibdiki, jinoyatchilikka qarshi kurashgandan ko'ra ularni oldini olgan ancha samarali yo'l hisoblanadi. Dunyo hamjamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos bo'lgan samarali siyosatini tatbiq etish haqida qayg'urmoqda. Bu borada shaxs, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoyalash, shuningdek huquqbazarliklar profilaktikasining zamonaviy va samarali tizimini yo'lda qo'yish muammolari tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. S.Xo'jaqulovning fikricha: Huquqbazarliklar profilaktikasi qonunda berilgan vakolatlar doirasida, sohaviy xizmatlar imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklar sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish, shuningdek g'ayri-ijtimoiy xulq-atvorga ega va huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, profilaktik ta'sir ko'rsatish orqali ularning axloqini tuzatishdan iborat [10].

**Xulosa.** Jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarliklarni oldini olishda ushbu g'ayri-ijtimoiy holatlarni yuzaga kelmasligi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim hisoblanadi.

O'yaymizki, yuqorida keltirilgan takliflar albatta o'z samarasini beradi. Mamlakatimizda huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar faqat va faqat xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi va ushbu loyihalardan ko'zlangan yagona maqsad bu - aholi tinchligini ta'minlash va bu orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shishdan iborat. Buning uchun esa barchamiz mas'ulmiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: J. III.- T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- 316b.
2. Ноговицина Е.Н. Правовые и организационные основы общественного контроля за деятельностью государственной инспекции безопасности дорожного движения / Наука и практика. 2014. №1(58). -С.106-109; Международный научный журнал № 3(100), «Научный Фокус» июль, 2023 287.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 27-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroti uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori // URL:<https://lex.uz/docs/3499747>.
5. Karaketova D.Y. Bezorilikning jinoyat-huquqiy va kriminalogik jihatlari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Т., 2021, - B.4 (156).
6. Белоспудцев В.И. Проблемы общесоциальной профилактики преступлений. Криминологический журнал, - М. 2002. №1. - С. 28.
7. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydag'i «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Т., 2014. - № 20. - 221-m.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi yalpi majlisida so'zlagan nutqi. [Https://xs.uz/uz/post/](https://xs.uz/uz/post/).
9. Odilqoriyev X.T., Tulteev I.T. Jinoiy-huquqiy siyosatni liberalallashtirish: zarurat va omillar //Хуцц-Право-Law. - 2002. - № 1. - Б. 8.
10. Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati. - Т.:2017. - B. 5.